

Kirish imtihonlari (3-bosqich) natijalari e'lon qilindi!

Hurmatli abituriyentlar,

2021-2022 o'quv yili uchun

KIRISH IMTIHONLARIDAN MUVAFFAQIYATLI O'TGANINGIZ BILAN TABRIKLAYMIZ!

Ushbu rasmiy e'longa alohida e'tibor berishingizni so'raymiz!

Bo'lib o'tgan kirish imtihoni natijalariga ko'ra, abituriyentlar to'rtta toifaga bo'lingan:

BIRINCHI TOIFA:

40.00 va undan yuqori ball to'plaganlar, to'g'ridan-to'g'ri First Level (ikkinchi kurs) ga qabul qilinadi. Agar ariza beruvchilar IELTS sertifikatiga ega bo'lmasa (kamida 5,5 ball), ular IELTS sertifikatini (kamida 5,5 ball) 2021-yil oktabr oyining oxiriga qadar topshirishlari shart *. Bir o'quv yili uchun o'qish to'lovi 28 500 000 (yigirma sakkiz million besh yuz ming) so'mni tashkil qiladi.

** Agar abituriyent IELTS sertifikatini o'z vaqtida taqdim etmasa, u avtomatik ravishda Preparatory Year (birinchi kurs) ga o'tadi.*

IKKINCHI TOIFA:

10.00 va undan yuqori, ammo 40.00 dan past ball to'plaganlar, IELTS sertifikatining mavjudligidan yoki mavjud emasligidan qat'i nazar, birinchi kursga qabul qilinadi. Bir o'quv yili uchun o'qish to'lovi 28 500 000 (yigirma sakkiz million besh

yuz ming) so'mni tashkil qiladi. Ushbu toifaga IELTS (kamida 5,5 ball) sertifikatini berish muddati – o'quv yili so'ngiga qadar.

UCHINCHI TOIFA:

0 dan yuqori, ammo 10 dan past ball to'plaganlarni Preparatory year (birinchi kurs) ga qabul qilish ko'rib chiqiladi.

TO'RTINCHI TOIFA:

0 yoki undan past ball to'plagan abituriyentlarni Preparatory year (birinchi kurs)ga faqat superkontrakt asosida qabul qilish ko'rib chiqiladi. Birinchi o'quv yili uchun o'qish to'lovi 42 750 000 (qirq ikki million yetti yuz ellik ming) so'mni tashkil qiladi.

Shartnomalarni rasmiylashtirish Toshkent shahridagi Turin Politexnika Universiteti binosida **2021 yil 13-sentabr soat 09:00 dan** boshlab amalga oshiriladi.

Qabul komissiyasining ishi uchun mas'ul shaxslar:

Rektor – Inoyatxo'jaev Jamshid Shuxratullaevich

Dekan – Abdullayev Farhod Bahramovich

Toshkent shahridagi Turin Politexnika Universiteti ma'muriyati ushbu ro'yxatdan tashqari shaxslarning faoliyati uchun javobgar emas.

Kerakli hujjatlar ro'yxati:

Ariza beruvchi pasportining asl nusxasi;

Ariza beruvchining ota-onasining pasport nusxasi.

Barcha savollar bo'yicha raqamlar:

71 246-80-51 / 52,

71 246 63 48

Elektron pochta: admission@new.polito.uz

Manzil: Kichik Kichik Halqa Yo'li ko'chasi 17, Olmazor tumani,
Toshkent 100095, O'zbekiston